

JADID MA'RIFATPARVARLARINING O'LKA IJTIMOY-MA'NAVIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Abdumalikova Mohinoz Maxmudjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti

Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) 1-bosqich

e.mail: mohinozabdumalikova0@gmail.com

tel: +998950741907

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17523871>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi mustamlakasi bo'lgan O'rta Osiyo, Kavkaz hamda O'rta Sibir xalqlari orasida yuzaga kelgan milliy, madaniy va ma'rifiy uyg'onish jarayoni **jadidchilik harakati** sifatida namoyon bo'lgani yoritilgan. Shuningdek, Turkiston jadidlari xalqni ozodlik sari yetaklash, mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzumni isloh qilish, xalq orasida ma'rifatni yoyish va milliy muxtoriyatga erishganligi haqida so'z boradi. Maqolada jadidlarning milliy birlik, ma'naviy yangilanish va ma'rifiy islohotlar orqali jamiyatni taraqqiyot yo'lga olib chiqishga intilganliklari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: mustamlaka, milliy uyg'onish, ijtimoiy-siyosiy tuzum, muxtoriyat, jadidlar, ma'naviy yangilanish, ma'rifiy islohot, taraqqiyot.

KIRISH

Jadidchilik harakati dastlab XIX asrning 80-yillarida vujudga kelgan. Bu to'g'risida so'z yuritilar ekan, avvalo, ma'rifatparvarlarning otasi, ya'ni Ismoil Gaspirali haqida aytib o'tishimiz lozim. Ismoil Gaspirali 1851-yil Boqchasaroy yaqinidagi Ajiko'y qishlog'ida tavallud topgan. Uning otasi Mustafo Gasprinskiy Rossiya harbiy dvoryani (praporshchik) bo'lib, Yalta shahri yaqinidagi Gaspra qishlog'idan edi. Ismoil turkiy xalqlar tarixi va adabiyotini o'rganib, Sharq va G'arbni taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ldi. Gasprinskiy "Rossiya musulmonligi" ilk risolasida yevropa sivilizatsiyasidan ko'r-ko'rona andoza olishga qarshi chiqib, uni tanqidiy qabul qilishga, musulmonlarni ilm-fanni egallashga, texnika yutuqlaridan foydalanishga da'vat etdi. "Ovrupe madaniyatiga bir nazar muvozzini" asarida esa sotsializm g'oyalari bilan bahsga kirishib, uning asosiy tamoyillarini shubha ostiga oldi. Boqchasaroyda dastlabki "usuli jadid" (yangi usul) maktabini ochdi. Turkiston general-gubernatori N.O. rozenbaxga musulmon maktablarini isloh qilishga doir loyihasini yubordi. Rad javobini olgach, 1893 yili Turkistonga o'zi keldi. Buxoro, Samarqand, Toshkentda bo'lib, tarqqiyparvar ziyolilar bilan uchrashuvlar o'tkazdi. U Jadidchilik g'oyalarini kengroq yoyish uchun "Tarjimon", "Millat", "Bolalar olami", "Uygo'nish", gazetalari, "Ayollar olami", jurnali hamda "Xa-xa-xa!" hajviy haftanomasini chiqardi.

Qayd etilishicha, Ismoil Gaspirali rus davlati yaxlitligi doirasida turkiy dunyoning dolzarb ijtimoiy-siyosiy muammolarini rus xalqi bilan ittifoq va hamjihatlikda hal etishda ilg'or madaniy taraqqiyotning haqiqiy istiqbolini ko'rgan, bu haqida u shunday yozgan: "Rossiyaning eng ko'p va asosiy xalqi-ruslar-boshqa elatlar bilan tinch va do'stona yashash uchun juda noyob va baxtli xarakterga ega. Chet elliklarga hasad, dushmanlik oddiy rus odamining tabiatidan emas. Bu yaxshi xususiyat, Rossiyaning nuyukligi va osoyishtaligining shubhasiz kafolati..."

Jadidlarning rahnamosi bo'lmish Ismoil Gaspirali 1914-yil 24-sentyabr kuni Boqchasaroy shahrida vafot etgan va Zinjirli madrasasi hududida dafn etilgan.

Turkiston jadidchilik harakatining namoyondalari jaholat, bilimsizlik, madaniyatsizlikni qoralaganlar. Bunga yaqqol misol Mulla Rahimxonning: "...Maktab va madrasa bir millatning hatto bani odamning darajali taraqqiy va taoliysi deb bo'ladur. Faqat taraqqiy va taoliyni maktab va madrasalarni ko'pligi ila bo'lmayincha, balki nizom va tartiblik bo'lub, yaxshi idora etilmog'i ila bo'ladur. Dunyoda mavjud millatlar taraqqiyni ibtidoiy maktablardan boshlarlar. Haqiqatan taraqqiy va taoliy uchun birinchi yo'l va asosul-asos maktabdur" talqinidagi fikri bo'la oladi.

O'zbek jadidlari	Tug'ilgan yillari	Faoliyati	Vafoti
Mahmudxo'ja Behbudiy	1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida ruhoniylar oilasida dunyoga keldi. Otasi-Behbudxo'ja Colihxo'ja o'g'li imom-xatiblik bilan shug'ullangan.	Kitoblari "Risolayi asbobi savod", "Amaliyoti islom", "Tarixi islom", dramasi "padarkush", darsliklari "Muntaxabi jo'g'rofiyai umumiy", "Muxtasar tarixi islom".	1919-yilning bahorida, ya'ni 25-martda Shahrizabzda qo'lga olinib, sirli bir tusda Qarshi sharida qatl qilinadi.
Abdulla Avloniy	1878-yil 12-iyulda Toshkentda Mergancha mahallasida, Otasi-Miravlon hunarmand bo'lgan.	Tahallusi "Xijron", dramalari "Ikki sevgi", "Biz va siz", "Pinak", sahna asarlari "Badbaxt kelin", "Uy tarbiyasining bir shakli", "O'liklar", darsliklari "Turkiy guliston yohud axloq", "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim".	1934-yil 25-avgustda vafot etdi.
Hamza Hakimzoda Niyoziy	1889-yil 6-martda Qo'qonda Ziyoli oilada. Otasi-Ibn Yamin Niyoz tabib bo'lgan.	Yangi maktablar uchun "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi" darsliklari, "G'ayrat" kutubxonasi asoschisi, tahallusi "Nihoniy", "Atirgul", "safsar gul". "Sariq gul" she'riy to'plamlari.	1929-yil 18-mart kuni Shohimardonda mavjud hukumat siyosatini barqaror qilishda, ruhoniylarga qarshi kurashda vafot etadi
	1886-yil Buxoroda	Ilk she'riy to'plami "Sayha", dramalari "Begijon", "Mavludi	Bir yarim yillik so'rov va qiynoqlardan so'ng

Abdurauf Fitrat	Otasi- Abdurahimboy sarrof bo'lgan Onasi-Bibijon	sharif", "Abulfayzxon", "Shaytonning tangriga isyoni", forsha risolalari "Munozara", "Oila", "Rahbari najot".	"millatchi", "aksilinqilobchi", "xalq dushmani", "nemis, ingliz ayg'oqchisi" degan ayblovlar bilan CCCR Oliy sudi harbiy kollegiyasi tomonidan sud qilinib, 1938-yil 4- oktyabrda otib o'ldiriladi.
Abdulla Qodiriy	1894-yil 10-aprelda Toshkentda bog'bon oilasida Otasi Qodirmuhammad- savdogar, bog'bon Onasi Josiyat bibi- uy bekasi	"Yangi masjid va maktab" ilk maqolasi, "Millatimga", "Ahvolimiz" she'rlari, "Baxtsiz kuyov" dramasi, "Juvonboz", "Uloqda" hikoyalari.	"Xalq dushmani", "Millatchi", "Aksil inqilobchi" ayblari bilan 1938-yil 4 oktyabrda otib o'ldirildi.

XULOSA

Jadidchilik harakati- o'z davrida xalqni ma'rifatga, ozodlikka va milliy uyg'onishga chorlagan buyuk ma'naviy-siyosiy harakatdir. XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllangan bu harakat O'rta Osiyo xalqlarining milliy o'zligini anglash, mustamlaka zulmiga qarshi ma'naviy kurashning asosiy kuchiga aylandi. Jadidlar Turkiston jamiyatini yangilash, xalqni ilmga, madaniyatga, milliy birlikka da'vat etish orqali o'zbek xalqining kelajagini yoritishga intildilar.

Ismoil Gaspirali, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi ma'rifatparvarlar o'z asarlari, maktablari va g'oyalari orqali millatni uyg'otishda beqiyos xizmat ko'rsatdilar. Ayniqsa, Avloniyni "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" talqinida aylilgan da'vatini bunga asosiy g'oya bo'ladi deb bemalol ayta olamiz.

Sovet davrida ularning ko'pi "xalq dushmani" sifatida qatag'on etilgan bo'lsa-da, mustaqillik yillarida ular merosi qayta tiklandi va hali hanuz nomlari e'zoz bilan tilga olinib kelmoqda. Marifatparvarimizning faoliyati o'zbek xalqining ma'naviy uyg'onish ta'rixida burilish yasadi, bugungi milliy davlatchilik va ma'naviy yuksalishning poydevorini qurdi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Qosimov Begali- Ismoilbek Gaspirali Toshkent 1992
2. Qosimov Begali, Sharif Yusupov, Ulug'bek Dolimov, Shuhrat Rizayev, Sunnat Ahmedov- Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti Toshkent "Ma'naviyat" 2004
3. "Masala" maqolasidan "Izhor ul-Haq" jurnali 1918
4. S.Tillaboyev, D.Kenjayeov - O'zbekiston tarixi (XIX asr ikkinchi yarmidan-XX asr oxirigacha). Toshkent 2022